

43-Mavzu. To‘rtburchaklar-3


1. Teng yonli trapesiyaning burchaklaridan biri 60° ga, yon tomoni 14 ga, asoslari yig‘indisi 31 ga teng. Trapesiyaning kichik asosini toping.
A) 8,5 B) 7,5 C) 6,5 D) 4,5
2. Trapesiyaning uchta tomoni 5 cm dan. To‘rtinchi tomoni esa 10 cm. Trapesiyaning eng katta burchagini toping.
A) 140° B) 120° C) 135° D) 150°
3. Teng yonli trapesiyaning perimetri 36 cm, o‘rta chizig‘i 10 cm. Yon tomonining uzunligini toping .
A) 10 cm B) 8 cm C) 9 cm D) 12 cm
4. Trapesiyaning diagonallari uning o‘rta chizig‘ini uchta teng bo‘lakka ajratsa, katta asosining kichik asosiga nisbatini toping.
A) 2:1 B) 3:1 C) 3:2 D) 5:2
5. ABCD trapesiyaning o‘rta chizig‘i uni o‘rta chiziqlari 13 cm va 17 cm ga teng bo‘lgan ikkita trapesiyaga ajratadi. Trapesiyaning katta asosini toping.
A) 19 cm B) 21 cm C) 18 cm D) 34 cm
6. Asoslari 8 va 12 ga teng bo‘lgan teng yonli trapesiyaning diagonallari o‘zaro perpendikulyar. Trapesiyaning yuzini toping .
A) 100 B) 64 C) 144 D) 52
7. Trapesiyaning yuzi 30 ga, balandligi 6 ga teng bo‘lsa , uning o‘rta chizig‘i qanchaga teng bo‘ladi
A) 2,5 B) 5 C) 7,5 D) 4,5
8. Trapesiya asoslarining uzunliklari 28 va 12 ga teng. Trapesiya diagonallari o‘rtalarini tutashtiruvchi kesmaning uzunligini toping .
A) 6 B) 7 C) 8 D) 9
9. BC va AD trapesiyaning asoslari, O-AC va BD diagonallarning kesishish nuqtasi, BOC va AOD uchburchaklarning yuzlari mos ravishda 9 va 16 ga teng. Trapesiyaning yuzini toping.
A) 32 B) 36 C) 49 D) 64

10. Teng yonli trapetsiyaning katta asosi 20 cm va perimetri 50 cm. Agar trapetsiyaning diagonalini uning o'tkir burchagini teng ikkiga bo'lsa, trapetsiyaning o'rta chizig'ini topilsin.
A) 12 B) 14 C) 15 D) 16
11. Trapetsiyaning o'rta chizig'ini 20 cm ga teng, uning asoslaridan biri ikkinchisidan 8 cm katta. Trapetsiya asoslarini aniqlang.
A) 14 cm, 22cm B) 15 cm, 23 cm C) 16 cm, 24cm D) 17 cm, 25 cm
12. ABCD trapetsiya asoslari $BC=8$ va $AD=50$ ga teng. Agar $\angle ADC = \angle BAC$ bo'lsa, AC diagonalni toping.
A) 18 B) 25 C) 20 D) 30
13. ABCD trapetsiyaning yuzi 48 ga teng, asoslari $DC=6$, $AB=2$. BC tomonidan E nuqta olingan bo'lib, $BE=2EC$ bo'lsa, ADE uchburchakning yuzini toping.
A) 18 B) 28 C) 24 D) 32
14. ABCD trapetsiyaning yuzi 24 ga teng, asoslari $DC=6$, $AB=2$. BC tomonidan E nuqta olingan bo'lib, $BE=2EC$ bo'lsa, ADE uchburchakning yuzini toping.
A) 14 B) 21 C) 12 D) 16
15. To'g'ri burchakli ABCD trapetsiyaning B va C burchaklari to'g'ri. $AB=3$, $BC=6$ va $DC=4$. Trapetsiyaning D uchidan AC diagonaligacha bo'lgan masofani toping.
A) 2 B) 3 C) 3,6 D) 2,4
16. To'g'ri burchakli ABCD trapetsiyaning B va C burchaklari to'g'ri. $AB=4$, $BC=3$ va $DC=2$. Trapetsiyaning D uchidan AC diagonaligacha bo'lgan masofani toping.
A) 1,2 B) 3 C) 2,4 D) 2
17. Asoslari 8 va 12 ga teng bo'lgan, teng yonli trapetsiyaning diagonalari o'zaro perpendikular bo'lsa, uning yuzini toping.
A) 100 B) 64 C) 144 D) 52
18. Teng yonli trapetsiyaning diagonalini uning o'tkir burchagini teng ikkiga bo'ladi. Agar trapetsiyaning perimetri 66 ga, katta asosi 18 ga teng bo'lsa, uning o'rta chizig'ini toping.
A) 13 B) 14 C) 17 D) 16

19. Trapetsiyaning asoslari 3 va 9 ga teng. Bu trapetsiyaning yon tomonlari teng uchga bo‘lingan va bo‘linish nuqtalari mos ravishda tutashtirilgan. Hosil bo‘lgan kesmalardan kattasining uzunligini toping.
A) 7 B) 6 C) 5 D) 4
20. Trapetsiyaning asoslari 3 va 9 ga teng. Bu trapetsiyaning bitta diagonal o‘tqazilgan. Bu diagonal o‘rta chiziqni ikkiga bo‘ladi. Hosil bo‘lgan kesmalardan kattasining uzunligini toping.
A) 3 B) 2,5 C) 4,5 D) 1,5
21. Trapetsiyaning uchta tomoni 5 cm dan. To‘rtinchi tomoni esa 10 cm . Trapetsiyaning eng katta burchagini toping.
A) 140° B) 120° C) 135° D) 60°
22. To‘g‘ri burchakli trapetsiyaning asoslar 8 va 11 ga, yuzi esa 38 ga teng. Perimetrini toping.
A) 26 B) 38 C) 28 D) 27
23. Trapetsiyaning diagonallari 17 va 10 ga, balandligi 8 ga teng. Uning yuzini toping.
A) 42 B) 63 C) 84 D) 168
24. Teng yonli trapetsiyaning burchaklaridan biri 120° ga teng bo‘lib kichik asosi 8 cm. Agar trapetsiyaning yon tomoni kichik asosiga teng bo‘lsa, uning perimetrini toping.
A) 32 cm B) 48 cm C) 36 cm D) 40 cm
25. K nuqta ABCD trapetsiyaning CD yon tomonining o‘rtasida yotadi. ABK uchburchakning yuzi 5 cm^2 ga teng bo‘lsa, trapetsiyaning yuzini toping.
A) $12,5 \text{ cm}^2$ B) 10 cm^2 C) $7,5 \text{ cm}^2$ D) 15 cm^2
26. Trapetsiyaning o‘rta chizig‘i uzunligi 7 ga, katta asosidagi burchaklari 30° va 60° ga teng. Trapetsiyaning asoslari o‘rtalarini tutashtiruvchi kesmaning uzunligi 2 ga teng. Trapetsiyaning kichik asosi uzunligini toping.
A) 4 B) 7 C) 6 D) 5
27. ABCD trapetsiyaning AC va BD diagonallari E nuqtada kesishadi . AED uchburchakning yuzi 9 ga teng (AD katta asosi). E nuqta diagonallaridan birini 1:3 nisbatda bo‘ladi . Trapetsiyaning yuzini toping .
A) 16 B) 144 C) 36 D) 64


28. Diagonallari 3 va 5 bo‘lgan trapetsiyaning asoslarini o‘rtasini tutashtiruvchi kesmaning uzunligi 2 ga teng. Shu trapetsiya yuzini toping.
A) 12 B) 6 C) 4 D) 10

29. ABCD to‘g‘ri burchakli trapetsiya $AB=BC=13$ cm, $DC=8$ cm. Trapetsiyaning yuzini toping. (cm²)




- A) 54 B) 76 C) 126 D) 116

30. ABCD trapetsiya, $BC=2AD$ va E nuqta BC ustidagi nuqta bo‘lsa, $\frac{A_1+A_3}{A_2}$ ni toping.




- A) 1 B) 2 C) 3 D) $\sqrt{2}$

31. ABCD parallelogramm, $AK=8$ cm, $BL=4$ cm, $PM=x$ cm, $DN=y$ cm va $CR=6$ cm bo‘lsa, $y-x=?$



- A) 2 B) 3 C) 4 D) 5

32. ABCD trapetsiyada $\cos C=?$



- A) $\frac{3}{4}$ B) $\frac{3}{5}$ C) $-\frac{3}{4}$ D) $-\frac{3}{5}$

33. Teng yonli trapetsiyaning diagonali uni ikkita teng yonli uchburchakka ajratadi. Trapetsiya burchaklarini toping.

- A) $72^\circ, 108^\circ$ B) $135^\circ, 45^\circ$ C) $100^\circ, 80^\circ$ D) $82^\circ, 98^\circ$

34. Teng yonli trapetsiya asoslarining ayirmasi uning yon tomoniga teng. Shu trapetsiyaning katta burchagini toping.
A) 120° B) 135° C) 150° D) 100°
35. ABCD qavariq to'rtburchakning AB va CD parrallel tomonlari o'rtalarini tutashtiruvchi kesma uzunligi 2 cm. BC va AD to'g'ri chiziqlar o'zaro perpendikulyar. AC va BD diagonallar o'rtalarini tutashtiruvchi kesma uzunligini (cm) toping.
A) 4 B) 1 C) $2\sqrt{2}$ D) 2
36. ABC uchburchakda MN o'rta chizig'i o'tkazilgan. ABC uchburchakning yuzi 40 cm^2 ga teng. AMNC trapetsiyaning yuzini toping (cm^2).
A) 10 B) 30 C) 20 D) 25
37. ABCD qavariq to'rtburchakda $AB=9$, $CD=12$. AC va BD diagonallar E nuqtada kesishadi. Agar $AC=14$ hamda AED va BEC uchburchaklar yuzlari teng bo'lsa, AE ni toping.
A) $\frac{9}{2}$ B) $\frac{21}{4}$ C) 6 D) $\frac{17}{3}$
38. ABCD($AB \parallel CD$) trapetsiyaning AC va BD diagonallari E nuqtada kesishadi. Agar $AB=a$, $CD=b$, $AD=c$ va $\angle DAB=\alpha$ bo'lsa, BCE uchburchakning yuzini toping.
A) $\frac{abc \cos \alpha}{2(a+b)}$ B) $\frac{abc \sin \alpha}{2(a+b)}$ C) $\frac{abc \sin \alpha}{2(c+a)}$ D) $\frac{abc \sin \alpha}{2(b+c)}$

Kalitlar

1.	A	16.	A	31.	B
2.	B	17.	A	32.	C
3.	B	18.	C	33.	A
4.	A	19.	A	34.	A
5.	A	20.	C	35.	D
6.	A	21.	B	36.	B
7.	B	22.	C	37.	C
8.	C	23.	C	38.	B
9.	C	24.	D		
10.	C	25.	B		
11.	C	26.	D		
12.	C	27.	A		
13.	B	28.	B		
14.	A	29.	C		
15.	D	30.	B		